



**SAMARQAND VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**SAMARQAND
VILOYATIDA
QURILISH ISHLARI**

**2024-YIL
YANVAR-NOYABR
OYLARI**

2024-yilning yanvar-noyabr oylarida Samarqand viloyatida jami **11 679,2 mlrd** soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2023-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **106,4 %** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari tarkibi ulushi, foizda


Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar hajmidan shakllanadi.




**Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar,
2024-yil 1-dekabr holatiga, birlikda**



Hududlar kesimida



Yillar kesimida



Qurilish sohasi viloyatimiz iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2023-yilning mos davri bilan solishtirganda 91,9 % ni tashkil etdi.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, *birlikda*

	Holatiga:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.12.2023-y.	01.12.2024-y.	
JAMI	2 553	2 345	91,9
Samarqand sh.	823	808	98,2
Kattaqo'rg'on sh.	106	95	89,6
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	122	105	86,1
Bulung'ur	61	58	95,1
Jomboy	111	82	73,9
Ishtixon	94	81	86,2
Kattaqo'rg'on	122	100	82,0
Qo'shrabot	68	61	89,7
Narpay	73	62	84,9
Payariq	219	193	88,1
Pastdarg'om	202	181	89,6
Paxtachi	71	51	71,8
Samarqand	135	160	118,5
Nurobod	59	45	76,3
Urgut	166	150	90,4
Toyloq	121	113	93,4



Hududlarda faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarining ulushi, 2024-yil 1-dekabr holatiga, foizda




Samarqand sh. 34,5



Payariq t. 8,2



Pastdarg'om t. 7,7




- Samarqand sh.
- Kattaqo'rg'on sh.
- Oqdaryo t.
- Bulung'ur t.
- Jomboy t.
- Ishtixon t.
- Kattaqo'rg'on t.
- Qo'shrabot t.
- Narpay t.
- Payariq t.
- Pastdarg'om t.
- Paxtachi t.
- Samarqand t.
- Nurobod t.
- Urgut t.
- Toyloq t.

Qurilish ishlari, 2024-yil yanvar-noyabr oylari uchun

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd so'm	Shu jumladan:		
		yirik qurilish tashkilotlari	kichik va mikrofirmalar	norasmiy sektor
Samarqand viloyati	11 679,2	1 640,7	8 358,8	1 679,7
Samarqand sh.	3 538,7	197,8	3 259,1	81,8
Kattaqo'rg'on sh.	253,1	0,1	227,0	26,0
<i>tumanlar:</i>				
Oqdaryo	486,4	62,6	382,6	41,2
Bulung'ur	224,7	18,1	159,8	46,8
Jomboy	317,5	21,2	258,7	37,6
Ishtixon	219,8	8,6	175,6	35,6
Kattaqorg'on	624,7	20,7	570,3	33,7
Qo'shrabot	225,2	83,0	105,7	36,5
Narpay	137,3	4,2	96,4	36,7
Payariq	1 323,1	60,4	1 217,4	45,3
Pastdarg'om	754,2	357,3	353,0	43,9
Paxtachi	152,0	10,4	101,0	40,6
Samarqand	262,7	50,0	171,0	41,7
Nurobod	141,9	43,7	56,1	42,1
Urgut	250,2	20,6	180,7	48,9
Toyloq	938,9	419,2	360,1	159,6
Taqsimlanmagan hajm	1 828,8	262,8	684,3	881,7

2024-yilning yanvar-noyabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 640,7 mlrd so'mni, 2023-yilning mos davriga nisbatan 96,9 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 14,0 % ni tashkil etdi.




umumiy hajmdagi ulushi, % da

MA'LUMOT UCHUN: Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng ko'p ulush Toyloq tumani (25,6 %), Pastdarg'om tumani (21,8 %) va Samarqand shahriga (12,1 %) to'g'ri kelmoqda.

2024-yilning yanvar-noyabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 71,6 % to'g'ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 3,0 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023-yilning mos davriga nisbatan 11,4 % ga o'sgan holda 8 358,8 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi, foizda



68,6

2023-yil
Yanvar-noyabr
oylari


71,6

2024-yil
Yanvar-noyabr
oylari



MA'LUMOT UCHUN: Joriy yilning hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush Samarqand shahrida (3 259,1 mlrd so'm yoki umumiy hajmning 39,0 %), Payariq tumani (1 217,4 mlrd so'm yoki 14,6 %), Kattaqo'rg'on tumani (570,3 mlrd so'm yoki 6,8 %) ga to'g'ri keldi.

Bajarilgan qurilish ishlari hajmida norasmiy sektorning ulushi 14,4 % yoki 1 679,7 mlrd so‘mni, 2023-yilning mos davriga nisbatan 94,4 % ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi hamda ulushi, foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 512,7 mlrd so‘mlik hamda nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 11 166,4 mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 4,4 % va 95,6 % ni tashkil etdi.

2024-yil yanvar-noyabr oylari



davlat mulki

2023-yil yanvar-noyabr oylari



nodavlat mulk

2024-yil yanvar-noyabr oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari hajmi va ulushi



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **79,7 %** yoki **9 303,3** mlrd so‘mlik qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

17,6%

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **1 640,7** mlrd so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **17,6 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **6 134,6** mlrd so‘m yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **66,0 %** ni tashkil etdi.

66,0 %

16,4 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **1 528,0** mlrd so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **16,4 %** ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida qurilish ishlari, 2024-yil yanvar-noyabr oylarida

	Qurilish ishlari, mlrd so‘m	O‘shish sur‘ati, foizda	Ulushi, foizda
Samarqand viloyati	11 679,2	106,4	100,0
Samarqand sh.	3 538,7	107,1	30,3
Kattaqo‘rg‘on sh.	253,1	110,0	2,2
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	486,4	109,7	4,2
Bulung‘ur	224,7	110,2	1,9
Jomboy	317,5	108,6	2,7
Ishtixon	219,8	121,0	2,0
Kattaqo‘rg‘on	624,7	98,0	5,3
Qo‘shrabot	225,2	136,2	1,9
Narpay	137,3	109,5	1,2
Payariq	1 323,1	107,5	11,3
Pastdarg‘om	754,2	97,1	6,5
Paxtachi	152,0	108,1	1,3
Samarqand	262,7	109,6	2,2
Nurobod	141,9	126,2	1,2
Urgut	250,2	103,6	2,1
Toyloq	938,9	104,2	8,0
Taqsimlanmagan hajm	1 828,8	104,6	15,7



Ma‘lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko‘rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

Samarqand viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi bu, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Bino va inshootlar qurilishi



2024-yil
yanvar-noyabr oylari

2023-yil
yanvar-noyabr oylari



2024-yil yanvar–noyabr oylarida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari tarkibida yirik korxonalar ulushi 21,5 % ni, kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulush 39,2 % ni, Norasmiy sektor hissasiga 39,3 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik korxonalar ulushi 34,0 % ni, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi 65,9 % ni, norasmiy sektor ulushi 0,1% ni tashkil etdi.



Yirik qurilish tashkilotlari



34,0

25,9



Kichik korxonalar va mikrofirmalar



65,9

73,9



Norasmiy sektor




0,1

0,2

2024-yil yanvar-noyabr oylari

2023-yil yanvar-noyabr oylari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari 79,3 % kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan -1,3 % punktga kamayish kuzatildi.



Yirik qurilish tashkilotlari ulushi foizda

Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi foizda

Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: (66)2356082